

**BUYUK SIYMOLAR ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
– MILLATIMIZ FAXRI**

Sultonova Nasiba

Yangihayot tumani 459 -DMTT "

Ko'zmunchoq" nomli 1 -tayyorlov

"Tabassum" guruhi oliy ma'lumotli tarbiyachi

Annotatsiya: *ushbu maqolada buyuk siymolar Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzoning xayoti, ijodi, jasoratlari va boshqalar to'g'risida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *ustoz, ta'lim, ijod, bilim, tarix.*

Alisher Navoiy (9-fevral 1441-yildan 3-yanvar 1501-yilgacha umr ko'rgan) — o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi. G'arbda chig'atoy adabiyotining buyuk vakili deb qaraladi, sharqda „nizomi millati va din“ (din va millatning nizomi) unvoni bilan ulug'lanadi. Tarixchi Ali Yazdiy nazariga tushgan, Mavlono Lutfiy yosh shoir iste'dodiga yuqori baho bergan, Kamol Turbatiy e'tirofini qozongan. Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad kabi ustozlardan ta'lim olgan, Abdurahmon Jomiy bilan ijodiy hamkorlikda bo'lgan. Navoiy 1469-yilgacha temuriylar orasidagi ichki nizolar sababli Hirotdan yiroqroqda yashagan.

Husayn Boyqaro Xuroson taxtiga o'tirgach (1469), Navoiy hayoti va ijodida yangi bosqich boshlanadi, muhrdorlik (1469-yilda) mansabiga, vazirlik (1472-yilda) va Astrobod hokimligi (1487-yilda)ga tayinlanadi. 1480–1500-yillar mobaynida o'z mablag'lari hisobidan bir necha madrasa, 40 rabot (safardagi yo'lovchilar to'xtab o'tish joyi), 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'prik, 20 ta hovuz qurdiradi. Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga „muqarrabi hazrati sultoniy“ („sulton hazratlarining eng yaqin kishisi“) degan unvonni beradi. Unga ko'ra Navoiy davlatning barcha ishlariga aralasha olardi.

Alisher Navoiy tarjimai holi o'z davrida Xondamir, Vosifiy, Husayn Boyqaro, Bobur kabi tarixchi va davlat arboblarning asarlarida aks etgan.

Kelmadi

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,

Ko'zlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadii.

Lahza-lahza chiqdimu, chekdim yo'lida intizor,

Keldi jon og'zing' avu ul sho'xi badho' kelmadi.

Ul parivash hajridinkim yig'ladim devanavor,

Kimsa bormukim anga ko'rgannda kulgu kelmadi.

Tolibi sodiq topilmas yo'qsakim qo'ydi qadam

Yo'lg'akim avval qadam ma'shuqqa o'tru kelmadi.

Ey Navoiy, boda birla hurram et ko'ngul uyin,

Ne uchunkim boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.

Bobur (taxallusi; to'liq ismi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo; 1483-yil 14-fevral – 1530-yil 26-dekabr) — o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shoh bo'lgan. Amir Temurning pannevarasi bo'lgan. Bobur o'z davrining

buyuk shaxslaridan biri edi. Uning she'rlari, ruboiylari o'z vaqtida va hozir ham sevib o'qilmoqda. 6 ta xotini bo'lgan. Bibi Muboraka, Mohimbegim, Zaynab Sulton Begim, Oysha Sulton Begim, Ma'suma Sulton Begim va Soliha Sulton Begim.

Otasi tomondan:

1. Amir Temur ko'ragon (1336-1405)
2. Mironshoh Mirzo (1366-1408)
3. Sulton Muhammad Mirzo (1398-1444)
4. Sulton Abu Said ko'ragon (1424-1469)
5. Umarshayx Mirzo ko'ragon (1456-1494)
6. Bobur (1483-1530)

Onasi tomondan:

1. Tug'luq Temurxon (1329-1362)
2. Xizr Xo'jaxon (1358-1399)
3. Muhammadxon (? - 1416)
4. Sharalixon (taxtga chiqmagan)
5. Uvaysxon (1418-1425-yillarda)
6. Yunusxon (1468-1487)
7. Yunusxonning qizi Qutlug' Nigorxonim (1457-1504)
8. Bobur (1483-1530)

1519-yil bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabt etish rejalarini amalga oshirishga kirishadi va keyingi 5-6 yil davomida bir necha yurishlar uyushtiradi.

O'zbek sultonlari Hamza sulton, Mahdi sulton, Mamaq sulton Bobur qabulida

Nihoyat, 1525-yilda Bobur 12 ming qo'shin bilan Hindistonga yurish boshladi. 1526-yil aprelda Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyning yuz ming kishilik qo'shinini 12 minglik askari bilan tor-mor qiladi hamda Dehlini egallaydi.

Oradan ko'p o'tmay, ikkinchi yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo'lgan qismini o'ziga bo'ysundiradi.

Agrani o'ziga poytaxt sifatida tanlagan Bobur katta qurilish va obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi. Shu tariqa Bobur Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukm surgan qudratli boburiylar sulolasiga asos soladi.

Bobur Hindistonda ham, xuddi Afg'onistonda bo'lganidek, ko'plab ijtimoiy xayrli ishlarni amalga oshirdi, mamlakat taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Tarqoqlik va parokandalikka, o'zaro ichki nizo, qirg'inlarga barham berib, viloyatlarni birlashtirdi, markazlashgan davlatni mustahkamlash va yurtni obodonlashtirishga, ilmu hunar va dehqonchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi. Qurilish ishlariga boshchilik qildi. U turli g'azallar muallifi sanaladi.

1526-yil 21-dekabrda Boburga qarshi suiqasd uyushtiriladi. Mahv etilgan Ibrohim Lo'diyning onasi oshpazlar bilan til birlashtirib, uning ovqatiga zahar qo'shtiradi. Shuning asoratimi yoki ko'p yillik mashaqqatli va qo'nimsiz hayot ta'sirimi, har holda keyingi yillarda Bobur tez-tez kasalga chalinib turadi.

1527-yil oktabrida Bobur yana xastalikka uchragach, umrining oxirlab qolganini his etadi. Shunda Bobur o'zi e'tiqod qo'ygan Xoja Ahror Valiy ruhidan najot tilab, ixlos bilan uning nasrda bitilgan „Volidiya“ asarini she'riy tarjima qiladi. Boburning mohir tarjimon sifatidagi qobiliyati namoyon bo'lgan 243 baytli bu asar katta ijodiy ilhom bilan juda qisqa muddatda yakunlangan. Boburning o'z e'tiroficha, tarjima tugashi hamonoq batamom sog'ayib ketgan. Bu yillarda u „Boburnoma“ fasllari ustida

ishlashni davom ettirdi, yangi-yangi gʻazal-ruboiylar yaratdi, oʻz iborasi bilan aytganda, „Hindistongʻa kelgali aytqon ashʻorni“ tartibga solib, shuningdek, „Volidiya“ tarjimasini, „Xatti Boburiy“ bilan bitilgan namuna va qitʻalarni Movarounnahr va Afgʻonistonga, Xumoyun, Xoja Kalon, Hindol va boshqalarga yubordi. Humoyun Mirzoga atalgan ijtimoiy-axloqiy masalalarni tahlil etuvchi mashhur maktubi ham Bobur ijodiy faoliyatining yorqin qirralaridan biri boʻldi.

Bir necha muddat oldin podsholikni Humoyunga topshirgan Bobur 47 yoshida oʻzi asos solgan saltanat poytaxti Agrada vafot etdi va oʻsha yerda dafn etildi, keyinchalik (1539), vasiyatiga muvofiq xoki Kobulga keltirilib, oʻzi bunyod ettirgan „Bogʻi Bobur“ga qoʻyildi.

FOYDALANILGAN ADABITOTLAR ROʻYXATI

1. Valitova, A. A. (1974). „Alisher Navoi“. A. M. Proxorov (rus.). Buyuk Sovet Ensiklopediyasi. 17 (3-nashr). Moskva: Sovet Ensiklopediyasi. 194-195-betlar.
2. M. Proxorov, muhar. (1997). „Navoi, Nizamiddin Mir Alisher“ (rus.). Buyuk Ensiklopedik Lugʻat (2-nashr). Sankt-Peterburg: Buyuk Rus Ensiklopediyasi. 777-bet.
3. Umidbek. „Alihser Navoiy Moskvada xotirlandi“. Ozodlik Radiosi (9-fevral, 2011). Qaraldi: 3-oktabr, 2012.
4. Alisher Navoi, Mukammal asarlar tuplami. 3 jild. Toshkent, 1988
5. Bobur. Tanlangan asarlar. -T.: 1958;
6. Bobur. Asarlar. Uch jildlik.-T.: Fan, 1965-66;
7. Bobur. Boburnoma. -T.: 1960, 1989;
8. Bobur. Muxtasar. Toshkent, 1971;
9. Babur. Traktat ob aruze (rodg. I.Steblevoy). — M.:1972;
10. Bobur. Devon. -T.: Fan. 1994; 6. Bobur. Mubayyin. — T.: 2001.